

## O'RTA ASR SHARQ RENESSANSI SHAKLLANISH TENDENSIYALARI

**Fatxulla Xikmatov Xabibullaevich**

*Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası katta o'qituvchisi*

*fathulla\_hikmatov@mail.ru Tel :998293101*

**Saydullayev Shohruhjon Shuhratjon o'g'li**

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti siyosatshunolik yo'nalishi 2-kurs talabasi*

*shohruhsaydullayev904@gmail.com Tel: 930737601*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada IX-XII va XIV-XV asrlarda sharqda yuz bergan „RENESSANS“ ya'ni uyg'onish davrining vujudga kelishida Islom dini, ma'daniyati, arab tili hamda Buyuk ipak yo'lining ahamyati yoritib berilgan.

Xususan, Sharq sivilizatsiyasining tarixi, paydo bo'lishi hamda rivojlanishining diniy, ma'daniy, geografik omillariga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, o'rta asrda uyg'onish davri yuz bergan hududlar ijtimoiy, siyosiy hamda geografik jihatdan tahlil qilindi. Keyingi izlanishlarimizda, sharq dunyosidagi uchinchi renesans vujudga kelishiga to'sqinlik qilgan omillarni o'rganishga qaror qildik.

**Kalit so'zlar:** Sivilizatsiya<sup>4</sup>, sharq, renesans, islom dini va ma'daniyati, buyuk ipak yo'li, arab tili.

### KIRISH

Sivilizatsiyalar tarixiga nazar soladigan bo'lsak, ilk bor Yaqin Sharqda (mezolit.dav.12-7ming.y) paydo bo'lgan, undan so'ng boshqa hududlarga asta-sekin tarqala boshlagan. IX-XII va XIV-XV asrlarda sharqda sodir bo'lgan uyg'onish davrining asosiy omillaridan bo'lgan, islom dini va uning ma'daniyati butunjahon ilmiy jamoatchiligining e'tibor markazida bo'lib kelgan. Xususan, Samuel Hantington „sivilizatsiyalar to'qnashuvi“ asarida shunday yozgan edi, „dunyodagi barcha yirik olimlar, yagona islomiy sivilizatsiya mavjudligini tan olishadi“. Sababi shuki, har qanday sivilizatsiyaning markazida din turadi.

VII asrda Arab xalifaligining Xuroson va Movaraunnahrda o'z hukmronligini o'rnatishi natijasida sharq renesansing o'chog'i bo'lmish Markaziy Osiyoda islom dini tarqala boshladi. Ana o'sha voqeadan so'ng, arab tilini o'rganish hayotiy zaruratga aylandi, sababi islom dinining muqaddas kitobi „Quroni Karim“ arab tilida nozil bo'lgan edi. Quron sharq aholisini ilmga yetaklabgina qolmay, ularning ijtimoiy, siyosiy, diniy hayotini tubdan o'zgartirishiga ko'maklashdi. Arab tilini o'rganish

zarurati' o'z ona tilidan arab tilini yaxshi biladigan bilimdonlar paydo bo'lishiga olib keldi. Xususan , Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) , Mahmud Qoshg'ariy(1028yoki1029-1126) . Misr poytaxti Qohirada joylashgan Al-ahzar dorilfunini talabalari Quroni karimni o'qishda Zamaxshariyning „ Al-kashshof' asaridan qo'llanma sifatida foydalanib kelayotganligi hamda Qoshg'ariyning turkiy xalqlarning arab tilidagi ilk ensiklopediyasini yaratishi buning yaqqol isbotidir.

Bundan tashqari , qoraxoniylar, somoniylar, g'aznaviylar hukmdorlarining ilm-fanga homiylik qilganligi, hattoki bazilari Quroni Karimni yoddan bilganligi, ilm – fanning qiymatini yuksaklarga ko'targan. Misol uchun g'aznaviylar hukmdori Mahmud G'aznaviy XI asrda Kobul va G'aznada Beruniy, Bayhaqiy, Gardaziy, Nosir Xisrav kabi bir qancha olimlarni to'plab ularning ijod qilishi uchun sharoit yaratib bergan, hatto masjid ,madrasa va hanoqohlar bilan birga kutubxonalar qurdirgan. Xorazmda Xalifa Mamun (813-833) IX asrda Ma'mun akmdemyasiga asos slogan hamda unda ilm-fan egalarini toplagan. Shu tariqa sharqda ilm-fan gurkirab rivojlana boshladi.

Bundan tashqari, sharqda Buyuk ipak yo'li ham ilm-fan, ma'daniyat rivojiga kerakli xissa qo'sha oldi. Mill.avv II asrdan milodiy XVI asrgacha Xitoydan to Shimoliy Afrikagacha bo'lgan eng muhim savdo yo'li Ushbu yo'l IX-X asrlarda qoraxoniylar va somoniylar, XIII asrda Chingiziylar, XIV asrda Amir Temur saltanati nazoratida bolgan. Buyuk ipak yo'li O'rta Osiyo aholisining iqdisodiy, ma'daniy va siyosiy hayotida muhim ro'l o'ynagan, u tufayli O'rta Osiyo aholisi sharq va g'arb dunyosi o'rtasida ma'naviy va ma'daniy aloqalarning shakllanishida va rivojlanishida, daslabki ilmiy yangiliklarning almashishida, diniy ta'limotlarning xalqlar va davlatlar bo'ylab tarqalishida hamda xo'jalik ixtirolardan xabardor bo'lishida asosiy vosita bo'lgan. Qadim zamonlardan savdogarlarni motabar shaxs sifatida bilishgan. Negaki, ular faqat mol sotib , undan foyda oluvchi boy qatlam emas, balki uzoq safarlarga karvonlarni boshlab boruvchi savdogar elchilar, ziyo va ma'daniyat tarqatuvchilar ham bo'lishgan. Misol uchun, g'arb adabyotidagi „ **Ming bir kecha** “ asari savdogarlar tomonidan yig'ilgan hikoyalar va rivoyatlar yig'ilishi oqibatida paydo bo'gan. Hatto payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ham Yasrib(Madina)ga, Shomga mol olib kelib sotib , u yerdan Makkaga mol olib borib savdo bilan shug'ullangan.

Kristafor Dauson aytganidek „ ortida buyuk sivilizatsiyalar turgan dinlar buyuk dinlardir” (S. Hantington „ Sivilizatsiyalar to'qnashuvi”1996). Tarixda Usmoniylar imperiyasi hamda Arab xalifaligining dunyo ma'daniyati boshlovchisi sifatida e'tirof etilishi, islom ma'daniyatining buyukligini ko'rsatib kelgan. Shuningdek muqaddas kitobimiz Quroni Karimda ibodat qilish 350 marta, ilm olish 752 marta, odob –axloq esa 1302 marta takrorlangan. Bundan ko'rinib turibdiki , ilm olish hamda ma'daniyati bo'lish ibodatdan ham ustunligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham islom ma'daniyati tarixdan dunyo ma'daniyatiga o'rnak bo'lib kelgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Vaholangki, bizning O'zbekistonda hali Renessans davri yana bir pog'onaga yuksalish arafasida deb ayta olaman. Sababi, „O'zbekistonda yana bir uyg'onish-uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston-kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalq-kechagi xalq emas”. (O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat MirziyoyevMiromonivich).

### Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, muqaddas dinimiz bizni eng avvalo ilm olishga, o'qib-izlanishga hamda mo'min inson bolishga chorlaydi. Bizda ro'y bergan ikkala renesansga ham etibor bersak, undagi allomalar ; M.Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy kabi bobokalonlarimiz ilm olishni eng avvalo Quroni karimni yodlashdan boshlagan.

Yangi davr ostonasida turibmiz , uchinchi Renessans poydevorini qurish payti keldi. Har bir sivilizatsiyaning markazida din , har bir taraqqiyotning markazida ta'lim turadi. Shuning uchun , biz muqaddas dinimizdan ozuqa olib , keyin siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o'rnimizni topishga harakat qilishimiz hamda yurtimizdagi barcha ta'lim muassasalardagi ta'lim sifatini yaxshilashimiz maqsadga muvoffiq bo'ladi .

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Azamat Ziyo „ O'zbek davlatchiligi tarixi’’ 2001-y. 92-113-b
2. A.O. Hasanov „ Buyuk ipak yo'li me'morchiligi’’ 2015-y. 29-31-b
3. S. Hantington „ Sivilizatsiyalar To'qnashuvi’’ 1996-y.
4. A.Muhammadjonov „ O'zbekiston tarixi’’ 2017-y
5. T. Salimov , F. Sultonov „ Jahon tarixi’’ 2017-y
- 6.B. Umarov „ Tamaddun’’ 2010-y
- 8.<https://www.google.com/search?q=sivilizatsiyalar+toqnashuvi&aq=chrome..69i57.32236j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8>
- 9.<https://www.google.com/search?q=islom+dini+va+madaniyati&aq=chrome..69i57.19163j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8>
- 10.<https://www.google.com/search?q=buyuk+ipak+yo%27li&aq=chrome..69i57.24955j0j9&sourceid=chrome&ie=UTF-8>